XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 30-sentabr VII-38-111-5-0-K/26 Navoiy viloyati

Viloyatda ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari tariflarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-171-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktabrdagi PQ-343-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi O‘RQ-784-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi “Kommunal xizmatlar ko‘rsatish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”ga 194-sonli Qarori, “Navoiy suv ta‘minoti” aksiyadorlik jamiyati direktori O.Zaripovning 2026-yil 24-iyuldagi 07-041/1365-sonli xati, viloyat hokimligining 2026-yil 10-avgustdagi 406/16-26-sonli bildirgisi, xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 10-avgustdagi DKQ 03-01/96-26-sonli qarori va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2026-yil 24-sentabrdagi 01-12/20-11-32/826-sonli xulosasi, “Navoiy viloyati suv ta’minoti” aksiyadorlik jamiyatining 2026-yil 18-sentabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga joylashtirilgan xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi qarori loyihasiga bildirilgan takliflarni muhokama qilish to‘g‘risida” gi 06-01/84-sonli yig‘ilish bayonini inobatga olib, viloyatda aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, kanalizatsiya xizmatlari ko‘rsatish ahvolini yanada yaxshilash maqsadida, bildirilgan taklif, fikr va mulohazalarni inobatga olgan holda, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-171-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktabrdagi PQ-343-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-sonli qarori ijro uchun, “Navoiy suv ta’minoti” AJ direktori O.Zaripovning ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari tariflari yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari (shuningdek, texnik suv va sug‘orish suvi yetkazib berish xizmatlari) uchun taklif narxlari (tariflar) 1-ilovaga muvofiq, viloyatda iste’molchilarni markazlashtirilgan kommunal suv tarmog‘idan ta’minlash imkoniyati bo‘lmagan hududlarga transport yordamida yetkazib berilayotgan ichimlik suvi ta’minoti uchun taklif narxlari (tariflar) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 15-avgustdagi VII-15-85-5-0-K/25-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Sh.Raubayeva), viloyat teleradiokompaniyasi (A.Muqimov), “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalari tahririyati DM (B.Umarov)ga olib borilayotgan ishlarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingandan boshlab, 15 kundan so‘ng kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini ta’minlash viloyat hokimi o‘rinbosari (E.Niyozov) hamda nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Isoqov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ALIYEV G‘OFIR QUVATOVICH**

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 30-sentabrdagi
VII-38-111-5-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Viloyatda ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari (shuningdek, texnik suv va sug‘orish suvi yetkazib berish xizmatlari) uchun TAKLIF NARXLARI (TARIFLAR)

so‘mda

T/r	Mahsulot nomi	hajmi	Narxi (QQS siz)		
			aholi	budjet tashki lotlari	boshqa ulgurji
1	Ichimlik suvi	1 m^3	4 200	10 500	10 500
2	Oqova suv	1 m^3	2 100	6 800	6 800
3	Texnik suv	1 m^3	400	1 750	1 750
4	Sug‘orish suvi	1 m^3	500	1 650	1 650

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2026-yil 30-sentabrdagi
VII-38-111-5-0-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Viloyatda iste’molchilarni markazlashtirilgan kommunal suv tarmog‘idan ta’minlash imkoniyati bo‘lmagan hududlarga transport yordamida yetkazib berilayotgan ichimlik suvi ta’minoti uchun
TAKLIF NARXLARI (TARIFLAR)

so‘mda

T/r	**Transport yordamida etkazib berish tartibi**	**yoqilg’i turi**	**hajmi**	**Narxi (QQSsiz)**
1	Tuman va shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlangan dislokatsiya asosida aholi yashash punktlariga yetkazib berish	aralash	1-litr	80,36